

SHARQ MAMLAKATLARIDA ZAMONAVIY MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING SHAKLLANISHI

Abdurahmonova Hilola Valijon qizi

**Andijon Davlat Pedagogika Instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti**

Annotatsiya: Maqolada Yaponiya, Koreya, Turkiya va Xitoy kabi Sharq davlatlarida maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqot an'ana va innovatsiyalarning uyg'unligi, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, o'yin asosidagi metodlar va global kompetensiyalarning shakllanishi muammolarini o'z ichiga oladi. Natijalar Sharq mamlakatlarida milliy qadriyatlar yo'qotmagan holda zamonaviy pedagogik yondashuvlar samarali joriy etilayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Sharq mamlakatlari, maktabgacha ta'lim, innovatsiya, an'ana, Yaponiya, Koreya, Turkiya, XXI asr ko'nikmalari, global kompetensiyalar.

Аннотация. В статье анализируется процесс модернизации системы дошкольного образования в восточных странах, таких как Япония, Корея, Турция и Китай. Исследование охватывает вопросы гармоничного сочетания традиций и инноваций, внедрения цифровых технологий, применения игровых методов и формирования глобальных компетенций. Полученные результаты показывают, что в странах Востока современные педагогические подходы эффективно внедряются, при этом не утрачиваются национальные ценности.

Ключевые слова: восточные страны, дошкольное образование, инновации, традиции, Япония, Корея, Турция, навыки XXI века, глобальные компетенции.

Abstract. The article analyzes the process of modernizing the preschool education system in Eastern countries such as Japan, Korea, Turkey, and China. The study addresses issues related to the integration of traditions and innovations, the implementation of digital technologies, the use of play-based methods, and the development of global competencies. The findings indicate that Eastern countries successfully implement modern pedagogical approaches while preserving national values.

Keywords: Eastern countries, preschool education, innovation, tradition, Japan, Korea, Turkey, 21st-century skills, global competencies.

Bugungi davrda Sharq mamlakatlarida maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayoni faollashgan. Islohotlarning asosiy mazmuni an'anaviy tarbiya me'yorlarini saqlagan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni barpo etish, XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish va bolalarning ijtimoiy-hissiy salohiyatini oshirishga alohida e'tibor berilayotir. Xalqaro tadqiqotlar Sharq ta'lim modelida "milliy qadriyat + innovatsiya" yondashuvi ustunligini ko'rsatadi [1]. Buni turli Sharq davlatlari misolida ko'rish mumkin.

Yaponiya maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning tabiiy rivojlanishini tashviq etish va ularni ijtimoiy dunyoga moslashtirishga qaratilgan. Bu tizimda o'yinga asoslangan ta'lim, tabiat bilan

munosabat, erkin faoliyat va bolalarning tashabbuskorligini o'stirish asosiy pedagogik tamoyil sifatida belgilangan[1]. Yapon maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar faoliyati asosan o'yin vositasida tashkil etiladi, bu esa ularning ijodiy tafakkur, muammolarni erkin hal qilish va jamoaviy ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin yaratadi. Shuningdek, yapon bog'chalarida tabiat bilan muntazam aloqaga katta e'tibor beriladi.

Tarbiyalanuvchilar bog'larda yoki kichik ekin maydonlarida o'ynash, o'simlik va hayvonlar bilan mashg'ul bo'lish orqali atrof-muhitni anglashni boshlaydilar. Bu nafaqat tabiiy bilimlarni shakllantiradi, balki bolalarda mas'uliyat va ekologik ongini rivojlantiradi [2]. Yaponiyada maktabgacha ta'limning muhim ustunlaridan biri – milliy an'analar va qadriyatlarni pedagogik jarayon bilan mos bo'lishidir. Masalan, hurmat, tartib-intizom, hamkorlik va ijtimoiy ahillik kabi qadriyatlar bolalarning kundalik faoliyatiga kiritilgan. Tarbiyachilar bolalarni o'zaro hurmat qilish, navbat kutish va guruh bilan ishlash kabi ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatishda faoldir. Jumladan, ular bolalarning mustaqil fikrlashiga to'sqinlik qilmasdan, tashabbuslarini rag'batlantiradi. Bu namuna an'ana va innovatsiyani birlashtirib, milliy qadriyatlarni o'zgartirmagan holatda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llashga misol bo'la oladi.

Janubiy Koreya esa raqamli innovatsiya yetakchisi hisoblanadi. Janubiy Koreyada bog'cha tizimi raqamlashtirilgan texnologiyalarni erta yoshdan boshlab qo'llaniladi. Maktabgacha ta'limda o'quv jarayoni faqat an'anaviy metodlar bilan emas, balki zamonaviy raqamli vositalar orqali ham tashkil etiladi. Ba'zi bog'chalarda esa robot-assistentlar ta'sis etilgan bo'lib, ular bolalar bilan o'yin o'ynash, vazifalarni nazorat qilish va pedagoglarga yordamlashish kabi vazifalarni bajaradi[3]. Biroq, Koreya maktabgacha ta'limida texnologik yangiliklar milliy qadriyatlar va ijtimoiy intizom bilan uyg'unlashgan holda qo'llaniladi. Raqamli innovatsiyalar bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoniga to'siq bo'lmaydi, aksincha ularni mustahkamlaydi. Bog'chalar bolalarga nazariy bilimlar emas, aksincha, ularni har tomonlama shakllantirish, jismoniy sog'lom va emotsional shakllangan, o'ziga ishongan qilib tarbiyalashni maqsad qilib qo'ygan[4]. Janubiy Koreya tajribasiga ko'ra, an'ana va innovatsiya bir-birini to'ldira oladi. Raqamli texnologiyalar maktabgacha ta'lim jarayonini yuksaltiradi, bolalarning individual talablarini qondirishga xizmat qiladi va pedagogik jarayonni shakllantiradi.

Turkiyada ta'lim tizimi oila bilan hamkorlik va milliy qadriyatlar asoslangani bilan e'tiborlidir. Turk maktabgacha ta'lim tizimining muhim jihatlaridan biri – oila bilan yaqin hamkorlikdir. Tadqiqotlar natijalariga asosan, tarbiyachilar ota-onalar bilan doimiy muloqot orqali bolalarning rivojlanish jarayonini hamjihatlikda boshqaradi[3]. Bu jarayon tarbiyalanuvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini e'tiborga olgan holatda o'quv faoliyatini shakllantirishga imkoni beradi. Masalan, ota-onalar bolalarning qiziqishlari va rivojlanish darajasini baholashda pedagoglarga xabar beradi, shu bilan birga, uyda o'nash mumkin bo'lgan o'yin va mashg'ulotlar orqali ta'lim jarayoni uzluksiz davom etadi. Turkiya bolalar uchun milliy qadriyatlarga tayangan holda kreativ yondashuvlarda ham faoldir. Shu bilan birga, tizim global kompetensiyalarni, barqaror rivojlanish tamoyillarini va ekologik ongini maktabgacha ta'limga tatbiq etadi[5]. Masalan, ba'zi bog'chalarda bolalar ekologik loyihalarda ishtirok etadi, resurslarni tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Xitoyda oxirgi yillarda maktabgacha ta'lim tizimi davlat tomonidan modernizatsiya qilinib, o'quv dasturlari yangidan tuzilmoqda. Mazkur jarayon bolalarning intellektual, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishi birdek e'tiborga oladi. 2024-yilgi tadqiqotlarda aytilishicha, Xitoy bog'chalarida matematika va til ko'nikmalarini barvaqt rivojlantirishga alohida diqqat qilinadi. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, o'yin metodlari va amaliy faoliyatlar bolalarning ijodiy fikrlash va

muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi[6]. Xitoyning maktabgacha ta'lim tizimida tartibli yondashuv asosiy tamoyil sifatida qo'llaniladi. Bu tizim orqali davlat o'quv jarayonining sifatini boshqarish, pedagogik faoliyatni baholash va milliy standartlarga moslashuvni ta'minlashga ega bo'ladi.

Sharq mamlakatlari global pedagogik jarayonlarga faol moslashib bormoqda. Turkiya, Yaponiya, Koreya va Xitoy maktabgacha ta'lim tizimlarida XXI asr ko'nikmalarini modernizatsiyalashga qaratilgan samarali metodlar joriy etilmoqda [7]. Bulardan kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish, raqamli savodxonlik, hamkorlik va kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar mavjud. Shular qatorida bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, madaniyatlararo muloqot va global fuqarolik tushunchalarini chuqurlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sharq mamlakatlarida maktabgacha ta'limning global tendensiyalarga moslashuvi o'ziga xos uyg'unlikni havola qiladi. Masalan, Yaponiya va Koreyada raqamli texnologiyalar va o'yin metodlari integratsiya qilinib, bolalarning ijodiy va aqliy rivojlanishi qo'llab-quvvatlanadi.

Turkiyada esa ota-ona bilan hamkorlik va ekologik ongni rivojlantirish metodlari global ta'lim tendensiyalari bilan moslashtirilgan holda qo'llanadi [8].

Xitoyda esa standartlashtirilgan yondashuv va sifat nazorati tizimi dunyo pedagogik standartlarga uyg'unligini ta'minlaydi, shu bilan birga bolalarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan faoliyatlar vositasida rivojlanish imkoniyati yaratadi. Natijada, bu jarayonlar Sharq mamlakatlarida maktabgacha ta'limning nafaqat milliy, balki xalqaro standartlarga uyg'unlashib, rivojlanib borayotganini tasdiqlaydi. Bu esa global pedagogik tajriba bilan mos, milliy an'ana va innovatsiyani muvofiqlashtirgan barqaror ta'lim tizimining shakllanishiga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Sharq mamlakatlarida maktabgacha ta'lim tizimi milliy an'ana va zamonaviy innovatsiyalarni uyg'un holatda barqaror o'sib bormoqda. Barcha mamlakatlarda barqaror rivojlanish, ekologik ong va global fuqarolik tushunchalari maktabgacha ta'lim jarayoniga kirmoqda.

O'zbekiston uchun Sharq mamlakatlaridagi ushbu tajribalar namuna bo'la oladi. Milliy qadriyatlarimizni o'zgartirmagan holda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish orqali maktabgacha ta'lim sifatini ko'tarish mumkin. Ayniqsa, ota-ona bilan hamkorlikni mustahkamlab, o'yin va raqamli metodlarni uyg'unlashtirib, ekologik va barqaror rivojlanish tushunchalarini integratsiya qilish O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida natijali pedagogik samaralarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga Sharq mamlakatlaridagi tajribalar O'zbekiston uchun milliy an'analar va global ta'lim tendensiyalarini uyg'unlashtirish bo'yicha ilmiy asos bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] Nakamura, H., & Suvon, S. *Preschool Education System in Japanese Education System*. 2023.
- [2] <https://xabar.uz/uz/talim/yaponiya-bogchasida-bir-kun-video>
- [3] Madjitova K. A. Janubiy Koreya maktabgacha ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari. International Conference on medicine, science, and education volume 01, issue 01, 2024 .
- [4] Lee, S. *Korean Preschool Innovation Model*. 2019.
- [5] Demir, F. *Turkey's Preschool Education System*. 2022.
- [6] Gürbüz, F., & Deniz, Ü. *Exploring Global Education in Early Childhood: Preschool Teachers' Perspective*. 2024.
- [7] *Chinese Preschool Education System*. 2024.

[8] Özgem, B., & Akçıl, U. *An Investigation of Preschool Out-of-Class Activities within the Framework of 21st Century Skills*. 2022.

[9] Eryaşar, S., & Özel, M. *Early Education for a Sustainable Future*. 2023.